

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NURIDDINOV QURBONALI KOMILJON O'G'LI

**“INTERNET OF THINGS” TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA PEREGON
SIGNAL NUQTASI QURILMALARI HOLATINI UZLUKSIZ
MONITORING QILISHNING MIKROPROTSESSORLI VOSITALARI**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Nuriddinov Qurbonali Komiljon o‘g‘li

“Internet of things” texnologiyalari asosida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilishning mikroprotssessorli vositalari 3

Нуриддинов Курбонали Комилжон угли

Микропроцессорные средства непрерывного мониторинга состояния устройств сигнальной точки перегона на основе технологий «Internet of things» 21

Nuriddinov Kurbonali Komiljon ugli

Microprocessor tools for continuous monitoring the state of railway run signal point devices based on “Internet of things” technologies 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NURIDDINOV QURBONALI KOMILJON O'G'LI

**“INTERNET OF THINGS” TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA PEREGON
SIGNAL NUQTASI QURILMALARI HOLATINI UZLUKSIZ
MONITORING QILISHNING MIKROPROTSESSORLI VOSITALARI**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4998 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azizov Asadulla Raximovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

O'ljayev Erkin
texnika fanlari doktori, professor

Rixsiyev Dilmurod Xojiakbarovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent


Yetakchi tashkilot:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 28-noyabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (191-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 14-noyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 14-noyabrdagi 51-raqamli reyestr bayonnomasi).



J.F. Kurbanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.M. Suyunbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

M.X. Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Temir yo‘l transportida harakat tarkibining xavfsiz, yo‘lda to‘xtalishlarsiz manziliga o‘z vaqtida yetib borishi ko‘p jihatdan avtomatika va telemexanika tizimi hamda qurilmalariga bog‘liq. Har qanday ishlab chiqarish jarayonini, ayniqsa temir yo‘l transporti kabi murakkab jarayonni samarali boshqarishga, jarayonlarning muvaffaqiyatli bajarilishiga faqat obyektlarning holati to‘g‘risida to‘liq, ishonchli va tahliliy tayyorlangan ma‘lumotlar asosida erishish mumkin. Bunday ma‘lumotlarning mavjudligi tashish jarayonini optimal tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash va kamaytirish, tariflarni tartibga solish va temir yo‘l transporti sohasida samarali siyosatni amalga oshirishning majburiy hamda ajralmas sharti bo‘lib hisoblanmoqda. Shu sababli temir yo‘l peregonlarida avtoblokirovka tizimining signal nuqtasi qurilmalari holatini real vaqt mobaynida masofadan turib monitoring qilish, nosozliklarni aniqlash hamda ularda ma‘lumot uzatishni zamonaviy usullarda tashkil etish orqali qurilmalar ishonchligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib resurslar va energiyani tejaydigan elementlar asosida uzluksiz nazorat, monitoring qilishga mo‘ljallangan mikroprotessorli vositalarni ishlab chiqish hamda ularni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda temir yo‘l avtomatika tizimlari, qurilmalari va ularni tashkil qiluvchi elementlarini takomillashtirgan holda tubdan yangi yoki qisman modernizatsiya qilish yo‘li bilan mikroprotessorli vosita hamda qurilmalarni yaratishga yo‘naltirilgan turli xil ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, zamonaviy aloqa kommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalangan holda temir yo‘l avtomatika va telemexanika tizimining qurilmalari holatini nazorat hamda monitoring qilish usullari, algoritmlari hamda bazaviy dasturiy ta‘minotlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish muhim bo‘lib, shu bilan bir qatorda, temir yo‘l peregonlaridagi avtoblokirovka tizimining qurilmalari ishonchligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shuningdek, temir yo‘l avtoblokirovka tizimi ishonchlik ko‘rsatkichlarini, qurilmalar holati to‘g‘risidagi monitoring natijalarini hamda aniqlangan nosozlik xabarlarini temir yo‘l xizmatchi xodimlariga real vaqt mobaynida uzatish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda transport yo‘nalishi bo‘yicha islohotlarga e‘tibor yanada kuchayib, sohani rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, amaldagi temir yo‘l liniyalari uzunligi, yo‘nalishlar va ulardagi qatnovlar sonini ko‘paytirish, foydalanishda bo‘lgan mavjud liniyalarda elektrlashtirish ishlarini olib borish, temir yo‘l liniyalari bo‘ylab joylashgan infratuzilma obyektlarini takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, ko‘zlangan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "... barcha turdagi transportlarni uzluksiz bog‘lash orqali yaxlit transport tizimini rivojlantirish, ... temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, ... temir yo‘l transporti tizimini takomillashtirish va uning

infratuzilmasini rivojlantirish”¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan temir yo‘l peregionlarining avtoblokirovka signal nuqtasi qurilmalarida yuzaga keladigan buzilishlarni kamaytirish, ularning ishonchliligini oshirish, sanoat miqyosidagi tarmoq hamda dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlar asosida uzluksiz nazorat va monitoring qilish vositalarini yaratish, ilmiy jihatdan asoslash muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli hamda 2019-yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-sonli Farmonlari, 2022-yil 6-iyuldagi “2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli Qarori va transport sohasiga dahldor boshqa shu kabi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga tegishli darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir yo‘l transportida poyezdlar harakati xavfsizligi, tezligi va ishonchliligini oshirish usullarini ishlab chiqish, avtomatika va telemexanika tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, mikroelektronika integral sxemalari asosida tayyorlangan yangi tizimlarni loyihalash bo‘yicha dolzarb bo‘lgan masalalar yechimiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning turli xil yetakchi oliy o‘quv yurtlari, ilmiy tadqiqot markazlari va nufuzli firmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bular sirasiga xorijiy nomdor tashkilotlar, jumladan Technische Universitat Wien (Avstriya), Dresden University of Technology, Institute of Railway and Transportation Engineering (Germaniya), Xian Railway Engineering Staff University (Xitoy), Peterburg davlat temir yo‘l universiteti, Rossiya transport universiteti (Rossiya) va “Siemens”, “Bombardier” firmalari kiradi. Shular bilan birga O‘zbekiston Respublikasida Toshkent davlat transport universtiteti ham ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borishmoqda.

Temir yo‘lda avtomatika, telemexanika tizim va qurilmalarining samaradorligi, ishlash ishonchliligini oshirish bo‘yicha turli darajadagi muammolarni o‘rganib, ularni hal etishda C. Pinedo, I. Lopez, P. Singh, G. Teega, P. Fraga-Lamas, V.M. Lisenkov, Yu.A. Kravtsov, V.V. Sapojnikov, VI.V. Sapojnikov, N.F. Kotlyarenko, V.S. Dmitriyev, A.B. Nikitin, P.F. Bestemyanov, V.P. Molotsov, A.A. Ivanov, D.V. Efanov, V.A. Sharikov kabi yetuk xorij olimlari va soha mutaxassislari o‘z hissalarini qo‘shganlar. Mamlakatimizda ham shu kabi olimlardan V.G. Stokov, Sh.R. Xorunov, N.M. Aripov, D.X. Baratov,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

J.F. Kurbanov, A.R. Azizov, D.X. Rixsiyev, S.T. Boltayev, E.K. Ametova, Sh.M. Yuldashev, F.F. Shakirova, R.B. Abdullayev, B.B. Raxmonov, Z.F. Mirzaraxmedovlar o'z ilmiy ishlarida transport jarayonlaridan foydalanishning nazariy-amaliy tahlil masalalariga, texnik-texnologik yechimlariga, temir yo'lda signallashtirish, markazlashtirish va blokirovka tizimlariga, shuningdek boshqarish hamda nazorat qilishning mikroprotessorli vositalariga alohida e'tibor berishgan.

O'zbekiston Respublikasida bajarilgan yuqorida sanab o'tilgan ilmiy ishlarda mualliflar tomonidan yangi zamonaviy mikroelektron texnologiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari va ularni amalga oshirish tamoyillari qayd etilgan hamda asoslab berilgan, ammo temir yo'l avtoblokirovka tizimlarining signal nuqtalarida harakat xavfsizligiga bevosita bog'liq bo'lgan qurilmalar holatini uzluksiz monitoring qilish hamda ma'lumotlarni ishchi xodimga tezkor uzatish masalasi o'rganilmagan. Hozirgacha monitoring qilish, tashxislash va ma'lumotlarni uzatish, algoritmlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish muammolarini hal qilish graflar nazariyasi usullari asosida bajarilmagan hamda energiya, resurs tejovchi "Internet of things" texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilmagan. Shuningdek, belgilangan vazifani bajarish maqsadida avtoblokirovka tizimlarida alohida olingan elementlar ishlashining matematik modellari, algoritmlari va dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan foydalanilmagan hamda ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-sonli Qarorining 4-ilovasida ko'rsatilgan 2023 – 2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshiriladigan "Drayver" innovatsion loyihalarining 155-bandida "RailNav yo'lovchi poyezdlar harakatlanishi onlayn monitoringi axborot tizimini yaratish" loyihasi hamda 33/2024-1-sonli "Manyovr svetoforini boshqarish uchun mikroelektron blokini ishlab chiqish" xo'jalik shartnomasi (2024-yil) bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishi rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Internet of things" texnologiyalari asosida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilishning mikroprotessorli vositalarini ishlab chiqish va tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo'l avtomatika va telemexanikasining avtoblokirovka tizimidagi signal nuqtasi qurilmalarini uzluksiz monitoring qilish vositalarining zamonaviy holati hamda muammolarini tadqiq etish;

avtomatika va telemexanika jihozlariga qo'yiladigan texnik talablar asosida peregon signal nuqtasi qurilmalarining holatini uzluksiz monitoring qilish mikroprotessorli vositalarini ishlab chiqish usullari va tamoyillaridan foydalanish zaruriyatini asoslash;

"Internet of things" texnologiyalari asosida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz nazorati va monitoringini amalga oshirish maqsadida

mikroprotessorli vositalarning matematik modellari, ishlash algoritmlari, shuningdek dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish;

peregon signal nuqtasida nazorat qilinadigan qurilmalarning diskret signallarini jo'natadigan kamerton generatorlaridan voz kechish maqsadida uning vazifalarini bajaruvchi mikroprotessorli vositalarni loyihalash, yaratish hamda sxemaviy yechimlarini ishlab chiqish;

peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini masofaviy nazorat va monitoring qilish, tashxislash hamda kelgusida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nosozliklarni bashoratlash maqsadida smartfon mobil ilovasini ishlab chiqish va yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti sifatida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilish vositalari olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida peregon signal nuqtasi qurilmalarining holatini uzluksiz monitoring qilish mikroprotessorli vositalarini matematik modellashtirish va apparatli ta'minotini amalga oshirish usullari, ishlash algoritmlari va bazaviy dasturiy ta'minotlari olingan.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot ishlari davomida Kolmogorov matematik tenglamalari, ehtimollar nazariyasi, graflar nazariyasi, xususan, Petri tarmog'i multigrafi hamda Markov zanjirlari holat grafi kabi matematik modellashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo'l avtomatika, telemexanika jihozlariga belgilangan texnik talablarni e'tiborga olib, energiya-resurs tejovchi va zamonaviy aloqa texnologiyalardan foydalanish orqali peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz nazorat va monitoring qilish hamda tashxislashning mikroprotessorli vositalarini ishlab chiqish usullari va tamoyillari asoslangan;

peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini hisobga olib Petri tarmoqlari grafi va Markov zanjirlari holatlar grafi asosida uzluksiz monitoring qilish, texnik tashxislash va bashoratlash, yo'l relesi kuchlanishini o'lchash hamda ma'lumotlar uzatishni tashkil etishning matematik modellari ishlab chiqilgan;

peregon signal nuqtasida nazorat qilinadigan qurilmalarning xavfli nosozlik holati haqidagi ma'lumotlarini zudlik bilan xizmat xodimlariga yetkazishni hisobga olgan holda, mobil ilova yordamida ogohlantirish orqali xabarlarini simsiz uzatish usuli ishlab chiqilgan;

monitoring ma'lumotlarini aloqa kanalidan tezkor uzatishni hisobga olgan holda, signal nuqtasi qurilmalari iste'mol tokining muhim qiymatlari darajalarini qisqa ma'lumotlar ko'rinishiga o'zgartirish orqali soddalashtirilgan tashxislash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kamerton generatorining funksional vazifalarini amalga oshiradigan qo'shimcha afzalliklarga ega peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring va tashxis qilishning mikroprotessorli vositalari hamda ulash sxemaviy yechimlari ishlab chiqilgan;

“Internet of things” texnologiyalari asosida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilishning mikroprotessorli vositalari uchun tuzilmaviy sxemalar, ishlash algoritmlari va dasturiy ta’minotlari ishlab chiqilgan;

peregon signal nuqtasi qurilmalarini masofaviy nazorat va monitoring qilish, tashxislash hamda kelgusida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan nosozliklarni bashorat qilish maqsadida “Internet of things” texnologiyalarini qo‘llagan holda smartfon mobil ilovasi yaratilgan va yagona ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi mikroprotessorli vositalarning tarkibiy barcha qismlari bir-biri bilan mutanosib ravishda ishlashi hamda mavjud avtomatik blokirovka signal nuqtasi qurilmalari bilan olib borilgan tajribalarga ko‘ra tasdiqlanishi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini monitoring qilishda resurs va energiya tejankor mikroprotessorli vositalarni yaratish vazifasini amalda bajarish maqsadida matematik modellashtirish usullarini takomillashtirish bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati signal nuqtasi qurilmalari holatini real vaqt davomida uzluksiz monitoring qilishning mikroprotessorli vositalarni yaratish, ularni inkor etishlarsiz va nosozlikka uchramasdan ishlash qobiliyatini oshirish hamda buzilishlarni tezkor bartaraf etish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlangan. Shuningdek, bu murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishni ta’minlaydi hamda obyektlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq, ishonchli ma’lumotlarga asoslanib, tashish jarayonini optimal tashkil etishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va tariflarni tartibga solishga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Internet of things” texnologiyalari asosida peregon signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilishning mikroprotessorli vositalarini yaratish va amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

qurilmalar holatini texnik tashxislash, bashoratlash, yo‘l relesi kuchlanishini o‘lchash hamda ma’lumotlarni simsiz uzatishni tashkil etish matematik modellari, ishlash algoritmlari, dasturiy ta’minotlari, shuningdek mikroprotessorli vositalarni ishlab chiqishning asoslangan usullari va tamoyillari hamda ularning sxemaviy yechimlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning “Signallashtirish va aloqa boshqarmasi” tasarrufidagi Salar-Nurhayot peregonida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 2023-yil 19-dekabrda 4/8876-sonli ma’lumotnomasi). Natijada signal nuqtasida qurilmalar holatini uzluksiz monitoring qilishning mikroprotessorli vositalari bexato ishlashini tekshirish, ularning ishlash ishonchliligini oshirishga erishilgan hamda monitoring va tashxislash ma’lumotlarini masofadan uzatishning talab etadigan shartlarini inobatga olish imkoni yaratilgan;

sanoat miqyosidagi “DVP20SX2” turidagi dasturlashtiriladigan mantiqiy kontroller, “SimCom SIM7600E” tarmoq kontrolleri apparatli bazasida yaratilgan mikroprotessorli vositalar hamda “Internet of things” texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan smartfon mobil ilovasi Toshkent signallashtirish va aloqa masofasi

Salar – Xojikent temir yo‘l uchastkasi, 8-kilometr 6-piketdagi 1-6-signal nuqtasiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 2023-yil 19-dekabrda 4/8876-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada kamerton generatorini istisno qilish, to‘satdan yuzaga kelgan nosozlik va buzilishlar haqidagi ma‘lumotlarni xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mobil telefonlariga SMS xabarlar ko‘rinishida zudlik bilan simsiz yetkazish imkoniyati paydo bo‘lgan. Mobil ilova yordamida qurilmalar holatini masofadan monitoring va nazorat qilish resurs sarfini 30...40 % ga kamaytirish, signallashtirish qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish jadvallariga muvofiq bir qator davriy ishlarni bajarishdan voz kechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyalar, shu jumladan 2 ta xorijiy (Scopus bazasida) va 4 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola chop etilgan, jumladan 5 ta maqola respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda 2 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish** qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ishonchligi va natijalarning amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek olingan natijalarni amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning umumiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Peregon signal nuqtasi qurilmalarining texnik holatini uzluksiz monitoring qilish jarayonlarini avtomatlashtirish masalasi”** nomli birinchi bobida temir yo‘l avtomatikasining peregon signal nuqtasi qurilmalari texnik holatini nazorat qilishning mavjud tizimlari va zamonaviy usullari hamda ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek avtomatika va telemexanika tizimlarida mikroprotsessori texnologiyalaridan foydalanish tajribasi o‘rganilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, temir yo‘l avtomatikasining peregonidagi signal nuqtalarida joylashgan qurilma va jihozlari uzluksiz nazorat qilishning mikroprotsessori vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish zaruriyati so‘nggi yillarda oshib borgan. O‘zbekiston temir yo‘llarida hozirda mavjud bo‘lgan dispetcherlik nazorat tizimlari o‘tgan asrning 60-yillarida yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda energiya hamda resurs tejankor texnologiyalarga bo‘lgan

talabning yuqoriligi, shuningdek, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi munosabati bilan zamonaviy, tezkor mikroprotessorli va ko‘p funksiyali nazorat tizimlarini ishlab chiqish masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ma‘lumki, poyezdlar harakatini boshqarish tizimining signal nuqtalaridan diskret ma‘lumotlarni qo‘shni stansiyalarga uzatish kamerton generatori yordamida amalga oshirilgan. Bu jarayonda ma‘lumotlarning tezkorlik belgisi bo‘yicha darajalarga ajratish mavjud emas. Ushbu generator nazorat qilish funksiyalari doirasi torligi uning cheklanganligini bildiradi va signal nuqtasidagi bir qator analog qurilmalarning parametrlari nazoratini qamrab olmasligi bilan tavsiflanadi.

Statistika ma‘lumotlari natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki avtomatika va telemexanika tizimining eng ko‘p nosozliklarga hamda parametrlarida og‘ishlar kuzatiladigan qurilmalarining ko‘p sonli ulushi aynan peregon signal nuqtalari qurilmalariga to‘g‘ri kelgan (1-rasm). Bunda elementlarning yemirilishi va resurslarning eskirishi evaziga nosozliklar aniqlanishi ortib bormoqda. Bu esa yangi buzilishlar yuzaga kelishiga, shuningdek navbatdagi joriy ta‘mirlash ishlarini amalga oshirishga olib kelmoqda. O‘z navbatida ushbu qurilmalarni to‘g‘rilash va tiklashga sarflanadigan qo‘shimcha xarajatlar tobora ortib borishiga, jihozlar



1-rasm. Nosozliklarning qurilmalar bo‘yicha taqsimlanishi

ishdan chiqishi sababli poyezdlarning to‘xtashi va turib qolishiga bog‘liq sarf-xarajatlar o‘shishiga, qurilmalarga texnik xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilayotgan xarajatlarning karrali tarzda ortishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan bu kabi jihoz va qurilmalarni davriy ta‘mirlash yoki almashtirish samarali hisoblanmaydi.

Bozordagi narx-navolarning iqtisodiy tahlillari natijasida so‘nggi 10 yil davomida elektr mexanik qurilmalarning narxi 15 marotabagacha oshgani, bazasi mikroelektron komponentdan tashkil topgan qurilma va extiyot qismlarning narxi esa 5 barobargacha ko‘tarilgani aniqlangan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar katta gabaritli jihozlar miqdorini kamaytirishga, elektr energiyasini tejashga olib keladigan, shuningdek, nazorat qurilmalarini tashxislash va kelgusidagi holatini bashoratlash, ma‘lumotlarni “Internet of things” texnologiyasi asosida simsiz uzatish, avtoblokirovka tizimi signal nuqtasi qurilmalarining analog va diskret signallarini nazorat qilish imkoniyatlarini o‘zida birlashtirgan qurilma mavjud emasligini ko‘rsatgan.

Shuning uchun “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ avtomatika va telemexanika qurilmalarining raqobatbardoshlik ko‘rsatgichlarini oshirish maqsadida mamlakatimizning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tezkor nazorat qilish vazifalarini bajaruvchi hamda qo‘shimcha afzalliklarga ega zamonaviy mikroprotessorli vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq qilish zarurati paydo bo‘ladi.


Dissertatsiyaning **“Peregona signal nuqtasi qurilmalari holatini uzluksiz monitoring qilishning matematik modelini tadqiq qilish va ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida signal nuqtasi qurilmalarini nazorat qilish tizimining ishini tahlil qilish va modellashtirish usulini tanlash amalga oshirilgan. Shuningdek ushbu bob peregonda poyezdlar harakatini avtomatik boshqarish tizimlarining signal nuqtasidagi qurilmalari holatini uzluksiz nazorati va monitoringini amalga oshirishda mikroprotessorli vositalarning eng maqbul ishlash algoritmini ishlab chiqish maqsadida qurilmalar holatini texnik tashxislash, bashoratlash, yo‘l relesi kuchlanishini o‘lchash, simsiz texnologiyalar asosida ma‘lumotlar uzatishni tashkil etish matematik modellarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Matematik modellashtirishda ehtimollar nazariyasi, Kolmogorov matematik tenglamalari va graflar nazariyasi usuli, xususan, Markov zanjirlari holat grafi hamda Petri tarmog‘i grafi yordamida ishlab chiqish va tadqiq etish amalga oshirilgan.

Avtoblokirovka yo‘l relesi kuchlanishini nazorat qilishda taklif qilinayotgan qurilmaning ishlash algoritmini olish uchun uning modeli yorliqli Petri tarmog‘i grafi yordamida ishlab chiqilgan. Bunda Petri tarmog‘i grafining bir necha holatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagicha tavsiflanadi: $P_{StartTimer}$ – taymerni ishga tushirish uchun modulning harakatlarini aks ettiruvchi holat, bu holatda yorliqning mavjudligi ma‘lumotlarni o‘qish amalini boshlashga olib keladi;

P_{ARO} – analog raqamli o‘zgartirgichning (ARO‘) ish faoliyatini aks ettiruvchi holat; bu holatda yorliq mavjudligi qabul qilingan analog ma‘lumotlarni raqamli ma‘lumotlarga aylantirish bo‘yicha amalni davom ettirishdan dalolat beradi; P_{Timer} – ARO‘da analog signalni o‘qish amali bajarilayotgan vaqt oralig‘ini (ularning miqdori n ga teng) aks ettiruvchi holat, bu holatda yorliqning mavjudligi ma‘lumotlarning keyingi holatga o‘tishi uchun ruxsat berishga mos keladi;

$P_{DataTransfer}$ – modulning ma‘lumotlarni uzatish bo‘yicha amalni aks ettiruvchi holat, bu holatda yorliq mavjudligi aloqa kanaliga ulanish vaqtiga to‘g‘ri keladi; $\bar{P}_{DataTransfer}$ – modulning ma‘lumotlarni uzatish bo‘yicha amal mavjud emasligini aks ettiruvchi $P_{DataTransfer}$ holatiga teskari holat, bu holatda yorliqning mavjudligi aloqa kanalidan uzilish vaqtiga to‘g‘ri keladi; P_{Data} – qabul qilingan ma‘lumotlarni tahlil qilish va maksimal qiymatni aniqlash tartibini yakunlovchi holat, bu holatda yorliq mavjudligi ushbu amaliyotlarning tugashini va ma‘lumotlarni uzatish so‘rovini aks ettiradi.

Dastlabki holatda, P_{Data} holatida yorliq yo‘q, chunki uni ishga tushirish uchun $I(t_1) = \{P_{Timer}, P_{ARO}\}$ kirish funksiyasi shartlari bajarilganda, uning chiqish funksiyasi $O(t_1) = \{P_{Data}\}$ bo‘yicha t_1 o‘tishdan kelib chiqadigan o‘lchov ma‘lumotlari yo‘q (2-rasm). P_{ARO} holatida yorliqning mavjudligi, taymerning ruxsati mavjudligidan qat‘iy nazar, yo‘l relesi analog kuchlanish qiymatini diskret shaklga aylantirishning



2-rasm. Impuls relesi kuchlanish nazorat qilish qurilmasi dastlabki holatining Petri tarmog‘i grafi


uzluksiz jarayonini ko'rsatadi. Raqamli ma'lumotlarni ARO' chiqishidan P_{Data} holatiga o'tkazish buyrug'i P_{Timer} holatidagi yorliq tomonidan ishlab chiqariladi, u n -marta paydo bo'ladi, shundan so'ng taymer ishlashni to'xtatadi. $I(P_{Data}) = \{t_1\}$ kiritish funksiyasiga ko'ra, bu habar ma'lumotlarni saqlash qurilmasiga kiradi va bitta yorliq P_{Data} holatiga joylashtiriladi hamda

maksimal kuchlanish qiymatini aniqlash jarayoni bajarilganidan so'ng, ikkinchi yorliq bu holatga joylashtiriladi (3-rasm). Shunday qilib, ma'lum vaqt oralig'ida yo'l relesi bo'yicha maksimal kuchlanish qiymatini aniqlash tartibi tugallanadi va ma'lumotlar aloqa kanaliga uzatishga tayyor.


P_{Data} holatida ikkita yorliqning mavjudligi $O(P_{Data}) = \{t_3, t_4\}$ chiqish funksiyasini bajarish, ikkita o'tishni t_3 va t_4 ishga tushirish uchun sharoit yaratadi. Ushbu ikkita o'tish bir vaqtning o'zida ishlash qobiliyatiga ega. t_4 o'tishni ishga tushirish

shartlari va natijalarini ko'rib chiqamiz, bu erda uning kiritish $I(t_4) = \{P_{Data}, \bar{P}_{DataTransfer}\}$ funksiyasiga ko'ra, 3-rasmdagi graf holatiga muvofiq, P_{Data} va $\bar{P}_{DataTransfer}$ holatlarida yorliqlar bo'lishi kerak. Bu shartlar bajariladi. Chunki ko'rib chiqilayotgan vaqtda ma'lumotlarni uzatish amaliyoti mavjud emas. Shuning uchun $\bar{P}_{DataTransfer}$ holatida yorliq mavjud va chiqish funksiyasi $O(\bar{P}_{DataTransfer}) = \{t_4\}$ teng bo'ladi. Shunday qilib, t_4 o'tishni boshlash

uchun barcha shartlar bajariladi va chiqish $O(t_4) = \{P_{DataTransfer}\}$, kirish $I(P_{DataTransfer}) = \{t_4\}$ funksiyasiga muvofiq, yorliq ma'lumotlarni uzatish jarayonining boshlanishiga to'g'ri keladigan $P_{DataTransfer}$ holatiga o'tadi. Uning tugashi bilan ikkinchi yorliq joylashtiriladi (4-rasm). $P_{DataTransfer}$ holatida ikkita yorliqning mavjudligi $I(t_5) = \{P_{DataTransfer}\}$ ifodasiga ko'ra t_5 o'tishni ishga tushirish va yorliqni $\bar{P}_{DataTransfer}$ holatiga o'tkazish uchun sharoit yaratadi. t_3 o'tishni ishga tushirish tugallanganidan so'ng va yorliq $P_{StartTimer}$ holatiga qo'yilgandan so'ng, chiqish $O(t_3) = \{P_{StartTimer}\}$ va kirish $I(t_2) = \{P_{StartTimer}\}$ funksiyalari bo'yicha, uning kirish $I(t_2) = \{P_{StartTimer}\}$ funksiyasiga muvofiq t_2 o'tishni ishga tushirish uchun sharoit yaratiladi. Ushbu o'tishni ishga tushirish shartlarining bajarilishi yorliqning P_{Timer} holatiga o'tishiga va taymerning qayta tiklanishiga olib keladi hamda grafik 2-rasmdagi boshlang'ich holat shaklini oladi. Modellashtirish natijasida Petri tarmog'i grafi uchun quyida kengaytirilgan kirish va chiqish funksiyalari aniqlangan (1). Yo'l relesi kuchlanishini o'lchash qurilmasi modelini Petri tarmoqlari grafi asosida tadqiq



3-rasm. Qabul qilingan ma'lumotlarni tahlil qilish va maksimal qiymatni aniqlashdan keyin grafning holati




4-rasm. Ma'lumotlar shakllangandan keyingi hamda ma'lumotlarni uzatish moslamasiga ulanishga tayyorlik grafning holati

qilish natijalariga ko'ra, 5-rasmda ko'rsatilgan yo'l relesi kuchlanishini kuzatish qurilmasining ishlash algoritmi ishlab chiqilgan. Algoritmga ko'ra yo'l relesi g'altagiga keladigan o'zgaruvchan kuchlanish impuls va intervallardan iborat. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'lchov qiymatlarining eng katta amplitudasini aniqlash uchun o'lchashlarni 400 ms davriylikda amalga oshirish ishonchli ma'lumotlarini qo'lga kiritish mumkin.

$$\begin{aligned}
 I(P_{Timer}) &= \{t_2\}; & O(P_{ARO'}) &= \{t_1\}; \\
 I(P_{StartTimer}) &= \{t_3\}; & O(P_{Timer}) &= \{t_1\}; \\
 I(P_{Data}) &= \{t_1\}; & O(P_{StartTimer}) &= \{t_2\}; \\
 I(P_{DataTransfer}) &= \{t_4\}; & O(P_{Data}) &= \{t_3, t_4\}; \\
 I(\bar{P}_{DataTransfer}) &= \{t_5\}; & O(P_{DataTransfer}) &= \{t_5\}; \\
 I(t_1) &= \{P_{Timer}, P_{ARO'}\}; & O(\bar{P}_{DataTransfer}) &= \{t_4\}; \\
 I(t_2) &= \{P_{StartTimer}\}; & O(t_1) &= \{P_{Data}\}; \\
 I(t_3) &= \{P_{Data}\}; & O(t_2) &= \{P_{Timer}\}; \\
 I(t_4) &= \{P_{Data}, \bar{P}_{DataTransfer}\}; & O(t_3) &= \{P_{StartTimer}\}; \\
 I(t_5) &= \{P_{DataTransfer}\}; & O(t_4) &= \{P_{DataTransfer}\}; \\
 & & O(t_5) &= \{\bar{P}_{DataTransfer}\}.
 \end{aligned}
 \tag{1}$$

Tashxislash va monitoring ma'lumotlarini simsiz uzatishni tashkil etish matematik modeli ham yuqordagi kabi Petri tarmoqlari grafi yordamida tadqiq etilib, ishlab chiqigan. Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, bir vaqtda ma'lumot uzatishga tayyor axborot manbalari o'rtasida ziddiyatni bartaraf etish maqsadida taymer funksiyasi kiritilishi lozim.


Ushbu taymer doimiy va takrorlanuvchan ishlagan holda ma'lumot manbasining ustuvorligi hamda ma'lumot uzatishga tayyorlik yorlig'iga qarab har bir axborot manbalarining aloqa kanali bilan bog'lanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari signal nuqtasidagi monitoring qilinadigan qurilmalarning ishlash jarayonida yuzaga keladigan hodisalar tasodifiy tusga ega bo'lganligi sababli va buzilishlar qaysi qurilmalarda ko'p uchrashini aniqlash maqsadida Markov zanjirlariga asoslangan holatlar grafi yordamida qurilmalar holatini monitoring qilish, texnik tashxislash va bashoratlash matematik modeli ishlab chiqilgan. Unga ko'ra signal nuqtasidagi qurilmalardan o'lchangan birlamchi ma'lumotlar asosida qurilma holati baholanadi va uning holati haqidagi tashxislash ma'lumotlari zudlik bilan choralar ko'rishni talab qiluvchi yoki "eslatma" toifasiga tegishli ogohlantirishlarga ajratiladi. Modellashtirish natijasida



5-rasm. Avtoblokirovka tizimining yo'l relesi kuchlanishini o'lchash uchun qurilmaning ishlashi algoritmi

Ushbu tuzilmaviy sxemada o'lchash kanallari kirish aktiv R0 qarshiligi o'lchanayotgan kuchlanish nominal qiymatlaridan kelib chiqib, 50-560 kOmgacha o'zgaradi. Galvanik ajratma sifatida ZMPT101B turidagi kichik gabaritli transformator ishlatilgan. Aktiv kirish qarshiligi yordamida pasaytirilgan analog signal tokini 2 dona 2 kaskadli LM358N operatsion kuchaytirgichlar yordamida kuchaytiriladi va keyinchalik DMKning analog raqamli o'zgartirgichi kirishlariga yuboriladi. 7-rasmda tasvirlangan tuzilmaviy sxema loyihasi EasyEDA – elektrik sxemalar hamda bosma platalar yaratish onlayn dasturiy vositasi yordamida ishlab chiqilgan. Ushbu sxema asosida elektron elementlarni bir-biriga nisbatan qulay joylashtirgan holda yaxlit bosma plata loyihasi ishlab chiqilgan.


